SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son S/8
2023

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V3SI8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Намазова Умида Нормуродовна*
ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ)........ 10-15

*Эрназаров Туйгун Раджабович*
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ........ 16-21

*Хужаниязов Уктам Ешбаевич*
“ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ҲУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ........ 22-27

*Шаимкулов Азамат Холмуратович*
ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ........ 28-38

*Муродов Ҳалим Салимович*
ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР........ 39-46

*Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН........ 47-51

*Shonazarova Nargiza*
TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR........ 52-57

*Axmadova Nafisa Axmad qizi*
OʻZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI........ 58-64

*Qodirova Raʼno Mamirjonovna*
OʻZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING OʻQITILISHI........ 65-70

*Yunusxoʻjayev Habibulla Zafar gʻoʻli*
SHARQDA KUCHLI IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI TARIXI........ 71-75

*Нарбеков Абдикамил*
НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ........ 76-80

*Alimova Gʻunchaxon Baxadirovna*
JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA........ 81-85

*Jumanazarova Fotima*
XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI........ 68-93

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich*
PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW........ 94-100

*Hamrayev Amirzoda*
ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KOʻRSATUVCHI TASHKILOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI ........ 101-109

*Хайтбоева Нигора Бакмататовна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ ........ 110-119

*Xalilov Qahramon Qurbonboyevich*
MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI ........ 120-132

*Махмудов Турсунпулат Давронович*
ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ ........ 133-144

*Ishchanova Salomat*
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING OʻRNI ........ 145-150

*Мўйдинова Зилола Вохид қизи*
ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА “АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ҲАРАКАТИ” МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 151-158

*Samandarov Oʻgabek, Ismoilov Shohjahon*
TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING OʻZIGA XOS JIHATLARI ........ 159-164

## *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Саидова Камола Усканбаевна*
ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ ........ 165-173

*Omonturdiyev Orzu Gʻafforovich*
INSONNING MAʼNAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI ........ 174-179

*Очилова Гузаль Араловна*
ЮКСАК МАЪНАВИЯТ–МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ........ 180-185

*Nurmatova Umida Jalolidinovna*
MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TAʼLIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI ........ 186-192

*Vafayeva Dilafruz Artikovna*
AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIY TAʼLIMOTIDA MAʼNAVIY BARKAMOLLIK ........ 193-198

*Karimov Zafarbek Ataboyevich*
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINING SOGʻLOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI ........ 199-202

*Bozorova Roʻzigul Sharofovna*
MEHRSIZLIK HODISASINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR ........ 203-212

*Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna*
DINIY MANBALARDA IJTIMOIY HAMKORLIK OʻOYALARI ........ 213-218

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*
TASAVVUF FALSAFASIDA GOʻZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI ........ 219-224

*Dehqonov Behzod Baxtityorovich*
YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI ........225-230

*Abdullayeva Firuza Sharipovna*
NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI ........231-236

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR ........237-243

*Ибрагимов Солижон Эргашович*
АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ........244-251

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Qodirova Mukaddas Tog'ayena*
BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI........252-257

*Abdullayev Ikramjon Xashimdjanovich*
DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE ........258-265

*Hamroyeva Sharifa Shukur qizi*
TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) ........266-271

*Olimova Gulfiza Muradullayevna*
BADIIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI........272-281

*Айниддинов Иқрориддин Шарифович*
АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ........282-287

*Turaeva Dilfuza Daminovna*
O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ........288-295

*Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna*
LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI........296-305

*Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli*
LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ........306-311

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV TA`SIRI XUSUSIDA ........312-317

*Шамақсудова Саодат Хидоятовна*
МАССМЕДИА АСПЕКТИНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР........318-324

*Шатова Ирина Юрьевна*
ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ........325-330

*Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna*
FRAZEOLOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI ........331-335

*Alimjanova Shohsanam Azamat qizi*
KO‘P MA‘NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI ....................336-340

*Турниязова Шахноза Нигматовна*
МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР ....................341-347

*Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich*
INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI ....................348-352

*Aminova Dilnoza Xikmatullayevna*
THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY ....................353-358

***12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР***

*Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ ....................359-365

*Mamataliyev To‘lqin Xushmamat o‘g‘li*
O‘ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA’LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI ....................366-378

***13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***

*Saidov Jur’at Sodirovich*
MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....................379-384

*Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,*
TEXNIK OLIY O‘QUV YURTLARIDA OO‘ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI ....................385-390

*Таджиходжаева Эльвира Рашидовна*
ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ ....................391-396

*Тўрахонова Барно Турсунбой кизи*
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ ....................397-406

*Ashurova Sitora Erkinovna*
USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION ....................407-412

*Каримжонова Мунаввар Ибрагимовна*
ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида)....................413-421

*Xamirayev Rustam Abdirazakovich*
VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH ....................422-426

*Хашимова Масуда Камилжановна*
КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК ....................427-435

*Бердикулова Насиба Эркинжоновна*
СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ....................436-442

*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*
AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........................................443-448

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 8/S (3)-2023. ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*07.00.00-Тарих фанлари*

**Alimova G'unchaxon Baxadirovna**
Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: alimovag'uncha@gmail.com

## JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat va dinning jamiyat taraqqiyotini tarixiy evolyutsion asoslari, davlat va din o'rtasidagi aloqa va munosabatlari, vijdon erkinligi tamoyili va davlatning dunyoviylik tamoyili, o'zlikni anglash masalasi haqida so'z boradi.
**Kalit so'zlar**: diniy plyuralizm, davlat, din, mentalitet, siyosat.

**Alimova Gunchakhon Bakhadirovna**
Independent researcher, Urgench State University

## THE BASIS OF HISTORICAL DEVELOPMENT OF SOCIETY IN THE EXAMPLE OF RELIGION AND THE STATE

**Abstract.** This article talks about the historical evolutionary foundations of the state and religion in the development of society, the relationship between the state and religion, the principle of freedom of conscience and the principle of secularism of the state, and the issue of self-awareness.
**Key words:** religious pluralism, state, religion, mentality, politics.

**Алимова Гунчахон Бахадировна**
Независимый исследователь,
Ургенчский государственный университет

## ОСНОВЫ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА НА ПРИМЕРЕ РЕЛИГИИ И ГОСУДАРСТВА

**Аннотация.** В данной статье говорится об исторических эволюционных основах государства и религии в развитии общества, о взаимоотношениях государства и религии, о принципе свободы совести и принципе светскости государства, а также о проблеме самосознания.
**Ключевые слова:** религиозный плюрализм, государство, религия, менталитет, политика.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N12

**Kirish.** Davlat va din o'rtasidagi o'zaro ta'sir turli hil va dinamik jarayondir. Jamiyatning juda murakkab quyi tizimlari bo'lgan siyosat va din turli xil mentallitet, faoliyat, madaniyat, institutsional shakllanishlar va boshqa ijtimoiy ko'rinishlarda munosabatlarga kirishadi. Davlat va din o'rtasidagi aloqa va munosabatlarning tabiati vaqt va makonda ko'plab o'lchovlarda farqlanadi. Bu borada tarix birlashishgacha bo'lgan yaqin hamkorlik hamda dinni jamiyat

hayotining turli xil kesishmaydigan yoʻllariga ajratilishi kabi koʻplab misollarni koʻrsatadi. “Siyosat” va “din”ga konseptual yondashuvlarning koʻpligini hisobga olgan holda shuni taʼkidlash joizki, ushbu tadqiqotda siyosat deganda ijtimoiy guruhlar va shaxslarning davlat hokimiyati yordamida amalga oshiriladigan qarorlarni ishlab chiqish faoliyati hamda manfaatlarni ifodalashda amalga oshiriladigan tarixiy-ijtimoiy tizim tushuniladi [1]. Din esa jamiyat maʼnaviy hayotining sohalaridan biri, individual yoki guruh shakllarida amalga oshiriladigan, shu jumladan, turli diniy birlashmalar shaklida institutsionallashgan “dunyoning amaliy-botiniy rivojlanish yoʻli” [2] sifatida qaraladi va talqin etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jamiyatda din omili, uning yoshlar dunyoqarashi va tafakkuriga taʼsirining tarixiy-nazariy hamda amaliy jihatlari, ijtimoiy hamkorlik jarayonlarida fuqarolik jamiyatining oʻrni masalalari zamonaviy sharoitlarda koʻplab olim va tadqiqotchilarning diqqat markazida boʻlib kelmoqda.

**Piter Berger** oʻzining oldingi qarashlarini [3] qayta koʻrib chiqib, “desekulyarizatsiya” [4] davrining kelishi haqidagi tezisni batafsil asoslab bergan paytdan boshlab diniy uygʻonish haqiqati tarix, jamiyatshunoslik va siyosatshunoslik kabi fanlarni qamrab olgan fanlararo tadqiqotlarning muhim elementiga aylandi. Dunyoning desekulyarizatsiyasi namoyon boʻlishining [5]baʼzan noaniq xususiyatiga va ijtimoiy modernizatsiya sharoitida turli xil natijalarga qaramay, aynan siyosiy sohada diniy uygʻonish hozirgi kun tartibidagi eng aniq va dolzarb tendensiya sifatida namoyon boʻladi. **X.Kazanova** taʼkidlaganidek, “zamonaviy dunyoda dinni “xususiylashtirish” haqidagi tezis endi na normativ, na empirik dalillar bilan himoyalanmaydi” [6]. **J.Korma**ning soʻzlariga koʻra, "soʻnggi bir necha oʻn yilliklar ichida din asta-sekin butun muhitimizga kirib bordi va, ehtimol, bizning eng muhim faoliyatimizning biriga aylandi" [7].

Zamonaviy ilmiy leksikonga faol kiritilgan taʼriflar: ***"desekulyarizatsiya", "dinning qaytishi", "dinni deprivatizatsiyasi", "diniy renessans"*** tushunchalari zamonaviy tadqiqotchilar ishlanmalarida alohida eʼtiborni talab qiladigan hozirgi ijtimoiy voqelikning belgisiga aylangan. Ularning ahamiyati dinning hozirgi jonlanishining sabablari va oʻziga xos xususiyatlarini tahlil qilish bilan izohlashimiz mumkin.

Avvalo shuni taʼkidlash kerakki, “diniy renessans hodisasi maʼnaviy tiklanish hodisasi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlik emas, garchi u bilan keng miqyosda kesishuv liniyalariga ega boʻlsada” [8]. “Dinning davlat siyosatiga qaytishi” [9], birinchi navbatda, uning (dinning) chuqur ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlib, identifikatsiyaning etnik omili bilan ham oʻzaro aloqadorlikda kechadi. Dinning oʻziga xoslikning (identichnost) madaniy va milliy mezoni xususiyatlariga ega ekanligi azaldan maʼlum. Biroq, dunyoda zamonaviy tarixiy oʻzgarishlar va tendensiyalar dinga uning sivilizatsiyaviy ahamiyati nuqtai nazaridan teleologik qiziqishni qayta tikladi.

Borliqni birlashtiradigan va standartlashtiradigan globallashayotgan dunyoning muammolaridan biri bu milliy (etnik) jamoalarning oʻziga xosligini saqlab qolishini xavf ostida qoldirmoqda. Milliy chegaralarning nafaqat hududiy, balki, eng avvalo, sosiomadaniy jihatdagi xiralashuvi “oʻzlikni anglash toʻgʻrisidagi tashvish genezisini” ragʻbatlantirib, sotsiumni birlashtiruvchi etnik tamoyilni izlashni kuchaytirdi [10]. Shu nuqtai nazardan, dinga boʻlgan qiziqish uning milliy va sivilizatsiyaviy aloqalarning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Din tarixiy inersiyaga ega. Boshqa ijtimoiy hodisalarga qaraganda, modernizatsiya unga kamroq taʼsir qiladi. Yoki, **M.P.Mchedlov**ning fikri bilan izohlaganda: *“uzoq tarixiy vaqt davomida*

*oʻzgarmagan tayanch qadriyatlar, uzoq muddatli omillar mavjud, ular maʼlum bir jamiyatning koʻplab avlodlariga xos boʻlib, nafaqat eng muhim, balki ularni aniqlashning barqaror koʻrsatkichlari sifatida ham harakat qiladi"* [11].

Zamonaviy sivilizatsiyalar nazariyasida din omili aynan shu rolda koʻrib chiqiladi. Siviliografiya nazariyotchilari jamiyatning ibtidoiylikdan zamonaviylikkacha boʻlgan rivojlanishini ifodalagani holda, aynan sivilizatsiya rivojlanishning eng yuqori bosqichi ekanligini eʼtirof qilishadi. Shu bilan birga, jahon sotsiumi bir qator xarakterli mezonlar bilan ajralib turadigan mahalliy sivilizatsiyalar majmuidir. Din, shu bilan birga, maʼlum bir sivilizatsiya hamjamiyatiga aralashishning juda muhim elementi sifatida ishlaydi. *"Sivilizatsiyani belgilovchi barcha obʼektiv elementlardan eng muhimi, ammo dindir"* [12], deya taʼkidlaydi **S.Xantington**.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sivilizasiyaviy yondashuvda dinning siyosiy ahamiyatining oʻziga xosligi zamonaviy tarixiy voqelikda sivilizatsiya nazariyasining dolzarblashuvi sabablarini tahlil qilganda yanada yaqqolroq namoyon boʻladi. Dinning madaniy ahamiyatiga eʼtiborning kuchayishi, kun tartibiga sivilizasiyaviy yondashuvni ilgari surish bir qancha omillar bilan bogʻliq.

***Birinchidan,*** bu rivojlangan davlatlardagi jadal migratsiya jarayonlari va natijada mamlakat ichida yangi etno-konfessional jamoalarning shakllanishida namoyon boʻladi. Bunday hodisa, xususan, zamonaviy Gʻarbiy Yevropa uchun juda xarakterlidir. Evropa hayotining iqtisodiy va ijtimoiy jozibadorligi Yevropaga kirmagan davlatlar vakillari uchun migratsiya motivi boʻlib xizmat qilmoqda. Bu esa, koʻplab Yevropa davlatlarida islom diniga eʼtiqod qiluvchi muhojirlarning yirik guruhlarining shakllanishiga, ularni boshqa konfessional jamoalarga qaraganda ancha tez oʻsib borishiga olib kelmoqda [13].

**A.A.Ignatenko** uni "har qanday "harakat" samarasiz, yoʻqotadigan va istalmagan boʻlib chiqadigan sugsvang bagʻrikenglik holatiga olib keldi" [14]. ***Ikkinchidan,*** siyosiy mojarolarda diniy omildan “foydalanish” zamonaviy xalqaro va ichki munosabatlarning oʻziga xos xususiyatiga aylandi. C.Xantingtonning dinlararo va millatlararo toʻqnashuvlar davri kelishi haqidagi bashoratlari oʻz tasdigʻini topganidan beri, islom radikal ekstremizmi tahdidi masalasi koʻpchilik siyosiy forumlar kun tartibidan tushmayapdi. Masalan, koʻplab tahlilchilar Fransiyada 2005 yil kuzida sodir boʻlgan voqealarning sabablari orasida aynan islomiy kontekstiga ega diniy elementni koʻrishgan. Islomiy radikalizmning xuddi shunday "izi" 2005 yilda Buyuk Britaniyadagi teraktlarda ham izlangan edi. Masalan, Rossiyadagi har bir terror yoki zoʻravonlik harakati har doim "kavkaz millatiga mansub shaxs"ni aniqlash uchun harakat qilinadi [15].

Shunday qilib, din, aniqrogʻi konfessional yoʻnalish zamonaviy voqelikda "bizniki" va "oʻzganiki"ni aniqlashning asosiy mezonlaridan biriga aylanadi. Bunday rasmni, xususan, postsovet mamlakatlarida ham kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, liberalizm va sotsializmning mafkuraviy antinomiyasining yoʻq boʻlib ketishi "usiz, liberalizmni rad etuvchi insoniyatning muhim qismi yerdagi adolat tantanasiga umidlar yoʻqolgandek vaziyatga tushib qolishiga" olib keldi. Din aynan shu ijtimoiy-mafkuraviy boʻshliqni toʻldirishga yoʻnaltiriladi

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, global miqyosida tarixiy-siyosat jarayonlar va din oʻrtasidagi munosabatlarning zamonaviy konseptual asoslarini shakllantirish jarayonida insoniyat jamiyati, ijtimoiy va ilmiy tafakkur asta-sekin tubdan yangi tizimga oʻta boshladi, unda diniy siyosatning asosiy mezoni ommaviy manfaat, davlat va dinning oʻzaro manfaatlari

emas, balki har bir insonning dunyoqarash erkinligi shaxsiy huquqida namoyon boʻldi. Dunyo mamlakatlaridagi avvalgi paradigmalar har-xil oʻziga xos shakl va tafsilotlar bilan bir qator umumiy xususiyatlarni ochib beradi: din va davlat ittifoqi, maʼlim bir dinning hukmronligi, shaxsiy huquqlarga eʼtibor bermaslik, dinlarning tengsiz pozitsiyasi, "nodavlat" konfessiyalarni kamsitish va boshqalar. Shu bilan birga, "eski" anʼanada siyosat va din oʻrtasidagi munosabatlarning asosiy tartibga soluvchisi davlat va monarx irodasi bilan singan manfaat va foyda tamoyili edi. Shuni taʼkidlash kerakki, xalqaro huquqiy standartlarni shakllantirish jarayoni avvalgi konseptual modelning evolyutsiyasi emas, balki tarixiy jihatdan paradigmalarning tubdan oʻzgarishini anglatardi. Qadriyat mezonlarining oʻzi, undan keyin esa davlat va din oʻrtasidagi munosabatlar tamoyillari oʻzgardi. Shaxs, inson huquqlari, demokratiya, bagʻrikenglik, kamsitmaslik, barcha eʼtiqodlarni hurmat qilish ustuvor qadriyatlarga aylandi.

**Xulosa.** Tarixiy tahlildan maʼlumki, zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda davlat va din oʻrtasidagi munosabatlar ikkita asosiy tamoyil – vijdon erkinligi tamoyili va davlatning dunyoviylik tamoyili asosida qurilgan. Ayrim tadqiqotchilar koʻproq jihatlarni ajratib koʻrsatishadi, ammo ular qaysidir maʼnoda rivojlangan mamlakatlar diniy siyosatining konseptual asosiga aylangan ushbu ikkita asosiy tamoyilga tayanadi.

Bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarda yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik hissini shakllantirish, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida diniy-ziyorat turizmi sohasida ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda[16].

## Адабиётлар/Литература/References:

1. Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. -2010. - С. 18.
2. Яблоков И.Н. Религиоведение. - 2004. - С. 223.
3. Peter L. Berger, The Sacred Canopy (New York: Doubleday, 1967.
4. The desecularization of the world: resurgent religion and world politics (ed. P. L. Berger). — Washington, D. C: Grand rapids, 1999; Peter L. Berger. Secularization falsified, First Things February. - [Электронный ресурс]. URL: http://www.firstthings.com/article/2008/01/002-secularization-falsified-1
5. Агаджанян А.С. «Множественные современности», российские «проклятые вопросы»и незыблемость секулярного Модерна // Государство, религии, церковь в России и за рубежом. - 2012. №1. -С.83-110.
6. Casanova J Public Religions Revisited in Hent de Vries, ed., Religion: Beyond the Concept. Fordham University Press, 2008, - p. 102.
7. Корм. Ж. Религиозный вопрос в XXI веке. Геополитика и кризис постмодерна. - М.: Институт Общегуманитарных Исследований, 2012. - С. 5.
8. Лебедев С.Д. Религиозный ренессанс как социальная реальность: к демифологизации понятия // Социологический журнал. - 2007. №2. - С.34.
9. Мчедлова М.М. Религия и политические императивы: социокультурные реалии современности. - С. 144. См.Также: Casanova J. Rethinking Secularization: a Global Comparative Perspective // Hedgehog Review. 2006. Vol. 8.No. 1 - 2; Робертсон Р.

«Возвращение» религии и конфликтная ситуация мироустройства // Век глобализации. -2010. №1.-С.30-38.
10. Корм. Ж. Религиозный вопрос в XXI веке. Геополитика и кризис постмодерна. - С.29.
11. Мчедлов М.П. Общие вопросы религиозной идентичности. К постановке проблемы, условия ее объективного анализа// Религия в самосознании народа (религиозный фактор в идентификационных процессах) / Отв. ред. М.П. Мчедлов - М.: Институт социологии РАН, 2008. - С. 16.
12. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. - М. АСТ, 2003. - С. 48.
13. Белокреницкий В.Я. Феномен исключительно быстрого роста мирового мусульманства вызывает особый интерес ученых. // Столетие - интернет газета, http://www.stoletie.ru
14. Игнатенко А.А. Между «исламофобией» европейцев и «европофобией» иммигрантов // НГ Религии - 20 дек. 2010.
15. Зинченко М.С. Политизация ислама как фактор современного политического процесса: на материалах Северного Кавказа: Дисс.... канд. полит, наук. Пятигорск. 2010.
16. NafasovD.Sh. Cultural tourism as a factor of development of social and cultural competences of students in tourist activity. //International scientific and practical conference cutting edge – science. – Shawnee, USA, 2020. 140 – 143 pages.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3SI8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).